

**TIBBIY LOTIN TERMINLARINI YODLASHNING SAMARALI
METODLARI**

*Navoiy davlat universiteti Tibbiyot
fakulteti Davolash ishi yo'nalishi*

Pardayeva Jasmina Odil qizi 1- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Turdiyev Shuhrat Berdiyevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy lotin terminlarini yodlash metodlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ya'ni, lotin terminlarini samarali yodlash uchun metodlar juda muhimdir. Maqolada kartochkalar yordamida mashq qilish, takrorlashning intervali, morfologik tahlil, va bir qancha metodlar haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Ya'ni har bir metod lotin terminlarini samarali yodlashga xizmat qiladi. Bu maqola talabalar uchun amaliy yo'l yo'riqlar beradi. Yosh shifokorlarga ham asqotadi.

Kalit so'zlar : tibbiy lotin terminlar, yodlash metodlari, flesh kartochkalar, morfologik tahlil, assotsiatsiyalar, onlayn resurslar va ilovalar, talaffuz.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о методах запоминания медицинских латинских терминов. То есть, методы очень важны для эффективного запоминания латинских терминов. В статье представлена подробная информация об упражнениях с карточками, интервалах повторения, морфологическом анализе и ряде других методов. Каждый метод служит для эффективного запоминания латинских терминов. Эта статья предоставляет практическое руководство для студентов. Она также будет полезна молодым врачам.

Ключевые слова: медицинские латинские термины, методы запоминания, карточки для запоминания, морфологический анализ, ассоциации, онлайн - ресурсы и приложения, произношение.

Abstract: This article provides detailed information about methods for memorizing medical Latin terms. That is, methods are very important for effective memorization of Latin terms. The article provides information about flashcard training, repetition interval training, morphological analysis and several other methods. That is, each method serves to effectively memorize Latin terms. This article provides practical guidance for students. It will also be helpful for young doctors.

Keywords: medical Latin terms, memorization techniques, flashcards, morphological analysis, associations, online resources and applications, pronunciation.

Kirish

Tibbiy lotin terminlari deb tibbiyotda qo'llaniladigan barcha terminlarga aytiladi. Tibbiy lotin terminlari 4 ta guruhga bo'linadi:

- Anatomik terminlar
- Gistologik terminlar
- Klinik terminlar
- Farmatsevtik terminlar

Anatomik terminlarga misollar: collum - bo'yin, os humeri - yelka suyagi, os radius-bilak suyagi

Gistologik terminlarga misollar: textus epithelialis - epiteliy to'qimasi, cartilago hyalina-shishasimon tog'ay, epitheesimplex-oddiy epiteliy

Klinik terminlarga misollar: febris - isitma, dolor - og'riq, inflammatio - yallig'lanish

Farmatsevtik terminlarga misollar: pulvis - kukun, guttae - tomchi.

Asosiy qism

Tibbiy lotin terminlarini samarali yodlash uchun bir qancha metodlar mavjud va deyarli barchasi samaralidir. Bu metodlar qatorida quyidagi metodlar ham bor.

1. Talaffuzni mashq qilish. Bu metod juda muhim bo'lib, har bir so'zlarni takroran talaffuz qilish zarur. Baland ovozda talaffuz qilish va audio yozuvlar yodlash samaradorligini oshiradi. To'g'ri talaffuz qilish so'zlarni to'g'ri va tez yodlash uchun xizmat qiladi.

2. Guruhlash. Tibbiy lotin terminlarini guruhlab o'rganish oson yodlashga yordam beradi. Har bir terminlarni o'ziga aloqador so'zlar bilan yodlash ancha samaralidir. Masalan: Anatomik terminlar, gistologik terminlar, klinik terminlar, farmatsevtik terminlar.

3. Takrorlashning intervali. Terminlarni ma'lum bir interval bilan takrorlash xotirada saqlab qolishda juda muhim hisoblanadi. Hamda uzoq muddatli xotirani mustahkamlaydi.

4. Morfologik tahlil. Terminlarni yodlash vaqtida har bir so'zning tarkibiy qismini bilish va ularni tahlil qilish yaxshi samara beradi. Shuningdek har bir talaba bu metodni bilishi va o'rganishi muhimdir. Chunki uzoq muddatli xotira uchun albatta tahlil qilib yodlash kerak.

Masalan: < dysuria> so'zida dys- organ faoliyati buzilishi yoki kasallik holatini bildiradi, - uria - siydik degan ma'noni bildiradi. Dysuria - qovuqdan siydik chiqishi qiyinlashishi.

5. Flesh - kartochkalar. Bu metod orqali terminlarni xotirada saqlab qolish osonlashadi va tibbiy lotin terminlarini eslashga yordam beradi.

6. Assotsiatsiyalar. Yodlab qolishga qiynalayotgan yoki bizga notanish bo'lgan terminlarni yodlash uchun o'zimizga oson, qulay va shu terminga aloqador narsa, so'zlarning nomi orqali eslab qolish xotirani mustahkamlaydi.

Masalan: Ren- roentgen -buyrak tekshiruvi

7. Onlayn resurslar va ilovalar. Anki, Quizlet va bir qancha ilovalar, You Tube video darslari tibbiy lotin terminlarini o'rganish va yodlashni ancha osonlashtiradi. Hamda terminlarni unutilishidan oldin " interval takrorlash"ni qo'llaydi. Tibbiy lotin terminlarini samarali yodlash uchun eng muhimi terminlarni yozib yodlashdir. Qadimgi davrda ham o'rganilgan bilimni albatta qog'ozga tushirishga harakat qilishgan. Chunki xotirada terminlarni uzoq muddat saqlab qolish uchun albatta takrorlab turish kerak. Hamda terminlarni yozib va talaffuz qilib yodlash bir vaqtda qo'llanilsa juda yaxshi samara beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda har bir metod yodlash samaradorligini oshiradi. Agarda bu metodlarning bir nechasidan foydalanilsa tez va juda yaxshi natija beradi. Chunki, har bir metodning vazifasi tibbiy lotin terminlarini tez, oson va uzoq muddatli xotirada saqlab qolishga yordam berishdir. Bu metodlarning barchasi talabalar va yosh shifokorlarga tibbiy lotin terminlarini samarali yodlash uchun yordam beradi. Demak yuqorida keltirilgan barcha metodlar samarali va muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamova S. Sh., Saydullayeva M. A., Abdullayeva R. M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017.
2. O.G.Olexnovich, G.S.Arhipova. Latinskiy yazik. Yekaterinburg. 2012.
3. Frederic M. Wheelock. Wheelock's Latin. Nyu-York. 1956.
4. Maurice Balme, James Morwood. Oxford Latin Course. Oksford. 1987.
5. M.Boliyev. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Toshkent. 2021.